

BOLALARDA BRONXIAL ASTMANI UMUMIY TAVSIFI

Oribjonova Vasilaxon Fizuliddin qizi.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

"Pediatriya" yo'nalishi 2-kurs magistranti

oribjonovvasilaxon07@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda bolalarda bronxial astma kasalligining umumiy tavsifi yoritilgan. Bronxial astmaning dolzarbligi, epidemiologik ko'rsatkichlari, kasallikning kelib chiqish sabablari hamda rivojlanish mexanizmlari zamonaviy ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, bolalik yoshida bronxial astmaning klinik kechish xususiyatlari, asosiy simptomlari va yoshga xos farqlari bayon etilgan. Tezisda bronxial astmaning bolalar salomatligiga salbiy ta'siri, uning erta aniqlanishi va to'g'ri boshqaruvining ahamiyati alohida ta'kidlangan. Keltirilgan ilmiy mulohazalar dissertatsiya ishining keyingi boblarida olib boriladigan tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Bolalarda bronxial astma, surunkali yallig'lanish, nafas yo'llari obstruksiyasi, bronxial giperreaktivlik, allergik kasalliklar, epidemiologiya, klinik belgilar, pediatriya.


Kirish. Bronxial astma bolalar yoshida keng tarqalgan surunkali yallig'lanish kasalligi bo'lib, nafas yo'llarining giperreaktivligi, qaytuvchan bronxial obstruksiya va bronxospazm bilan xarakterlanadi. Ushbu kasallik klinik jihatdan hansirash, nafas qisishi, xirillash, yo'tal xurujlari bilan namoyon bo'lib, simptomlar odatda kechasi yoki erta tongda kuchayadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bronxial astma bolalar orasida eng ko'p uchraydigan surunkali respirator kasalliklardan biri hisoblanadi. Kasallikning boshlanishi ko'pincha erta bolalik davriga to'g'ri kelib, irsiy moyillik va tashqi muhit omillari bilan chambarchas bog'liq. Bolalarda bronxial astmaning asosida bronx shilliq qavatining surunkali yallig'lanishi yotadi. Yallig'lanish jarayonida eozinofillar, mast hujayralar va T-limfotsitlar faol ishtirok etib, bronx devorida shish, shilliq sekretsiasining ortishi va silliq mushaklarning qisqarishiga olib keladi. Natijada nafas yo'llari torayib, havo oqimiga qarshilik kuchayadi.

Bolalar organizmining anatomik va fiziologik xususiyatlari bronx yo'llarining torligi, shilliq qavatning tez shishishi va immun tizimning yetilmaganligi bronxial astmaning og'irroq kechishiga sharoit yaratadi. Shu sababli bolalarda astmani erta aniqlash va to'g'ri boshqarish pediatriyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Bolalarda bronxial astmaning epidemiologiyasi. Bronxial astmaning tarqalishi dunyo bo'yicha yil sayin ortib bormoqda. Turli epidemiologik tadqiqotlar natijalariga

ko'ra, dunyo bo'yicha bolalarning o'rtacha 5–20 % ni bronxial astma bilan kasallangan. Bronxial astma (BA) bolalik davrida eng keng tarqalgan surunkali kasalliklardan biri bo'lib, allergik patologiyalar orasida yetakchi o'rin egallaydi. Turli ma'lumotlarga ko'ra, allergik kasalliklar tarkibida bronxial astmaning ulushi 50–70 % ni tashkil etadi. Ayniqsa, sanoati rivojlangan hududlarda va ekologik noqulay sharoitlarda kasallanish darajasi yuqoriligi qayd etilgan.



1-rasm Bronxial astmanig kilinik belgilari.

O'zbekiston Respublikasida ham bronxial astma bolalar orasida keng tarqalgan bo'lib, u surunkali bronx o'pka kasalliklari ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Respublika hududlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, ayrim viloyatlarda bolalar orasida bronxial astmaning tarqalish ko'rsatkichi 4–7 % ni tashkil etadi. Shaharlarda yashovchi bolalarda kasallik qishloq hududlariga nisbatan ko'proq uchrashi ekologik omillar, atmosfera havosining ifloslanishi va maishiy allergenlar bilan izohlanadi. O'zbekistonda bronxial astma bolalar orasida eng ko'p uchraydigan surunkali o'pka patologiyalaridan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lib, uning umumiy ulushi taxminan 5 foizni tashkil etadi. 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqyosida bronxial astma bilan bog'liq o'lim holatlari soni 400 ming nafarni tashkil etgan. So'nggi 25 yil davomida ushbu ko'rsatkich 26,7 foizga kamayganiga qaramay, bronxial astma bilan kasallanish darajasi oshib bormoqda. Bronxial astma bilan kasallangan bolalarning taxminan 70 foizida kasallik yengil shaklda, qariyb 25 foizida

oʻrtacha ogʻirlikda va 5 foizida ogʻir kechadi. Koʻpgina holatlarda kasallikka tashxis uning boshlanishidan 2–6 yil oʻtgach qoʻyiladi, bu esa bronxial astmaning kechishini ogʻirlashtiradi va asoratlar rivojlanishiga zamin yaratadi.

Bronxial astmaning nasliy moyilligi shubhasiz boʻlib, bemorlarning qariyb yarmida yaqin qarindoshlarida allergik patologiyalar yoki bronxial astma qayd etiladi. Oilada allergik kasalliklarning rivojlanish xavfi allergik nasliy moyillik mavjud boʻlmagan holatlarda taxminan 20 foizni tashkil etsa, ota-onalardan birida allergik kasalliklar mavjud boʻlganda ushbu koʻrsatkich 50 foizgacha, ikkala ota-onada ham allergik kasalliklar aniqlangan hollarda esa bronxial astma rivojlanish xavfi 75 foizgacha ortadi.

Xulosa. Bronxial astma bolalar yoshida keng tarqalgan surunkali nafas yoʻllari kasalligi boʻlib, bronxlarning yalligʻlanishi va giperreaktivligi bilan tavsiflanadi. Kasallikning rivojlanishida irsiy moyillik, allergik holatlar va atrof-muhit omillari muhim ahamiyatga ega. Bolalarda bronxial astmaning klinik belgilari yosh xususiyatlariga bogʻliq holda turlicha namoyon boʻlib, bu tashxis jarayonini murakkablashtiradi. Bronxial astmani erta aniqlash va toʻgʻri tashxislash kasallikning ogʻirlashuvini oldini olishda muhim hisoblanadi. Kompleks yondashuv asosida olib borilgan davolash va nazorat choralari bolalarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shuning uchun bolalarda bronxial astmaning umumiy tavsifini chuqur oʻrganish pediatriya amaliyotida dolzarb ilmiy masala boʻlib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻtkirbekov S.A., Raxmonov F.X. Bolalar pulmonologiyasi. Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 2019.
2. Ismoilov Sh.I., Karimova D.T. Bolalarda bronxial astmaning klinik xususiyatlari. Oʻzbekiston tibbiyot jurnali. 2021;4:45–49.
3. Global Initiative for Asthma (GINA). Global Strategy for Asthma Management and Prevention. 2023 update.
4. Jackson, D. J., & Hartert, T. V. (2018). Asthma phenotypes and endotypes: an evolving paradigm for classification. The Lancet, 392(10156), 2049-2062.